



**International Conference on Modern Science and Scientific Studies**

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> April, 2025

---

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK  
TARBIYACHILARNING KASBIY REFLEKSIYA MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI VA TUZILMASI**

Ro‘zmetova Farangiz Azamatovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti stajyor-o‘qituvchisi

Urganch davlat pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: farangizrozmetova4@gmail.com

**Annotatsiya:**

Bugungi kunda ya’ni innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bir qancha murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shunday ekan ulardagi refleksiv kasbiy madaniyat ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantirish, baholash, tanqid qilish va o‘zgarishlarga moslashish pedagogik muaommoga aylangan. Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy refleksiya madaniyatini shakllantirish omillari va rivojlantirish shartlariga ta’rif berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Refleksiya, madaniyat, refleksiv madaniyat, innovatsion ta’lim, pedagogik refleksiya,

Hozirgi innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni murakkablashib bormoqda. Kasbiy refleksiya madaniyatining rivojlanishi tarbiyachilarning pedagogik faoliyatni anglash va baholash qobiliyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqola bo‘lajak tarbiyachilarning refleksiya madaniyatini shakllantirish jarayonini o‘rganishga qaratilgan.

Kasbiy refleksiya madaniyatini rivojlantirish muammosi ta’lim sohasida keng o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Refleksiya tushunchasi psixologiya, pedagogika va metodika fanlarida turli yondashuvlar asosida izohlanadi. Tadqiqotchilar refleksiyani shaxsning o‘z faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qiladilar (D. A. Kolb, J. Dyui, L. S. Vygotskiy).

Pedagogik nazariyalar asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy refleksiya madaniyatining rivojlanishi ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> April, 2025

Xususan, L. S. Vygotskiy fikriga ko'ra, refleksiya shaxsning bilish faoliyatini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri bo'lib, uning pedagogik o'sishiga ta'sir qiladi. J. Dyui esa refleksiyaning tajribaga asoslangan fikrlash jarayoni sifatida izohlab, insonning o'z tajribasini chuqur anglash orqali yangicha qaror qabul qilishiga yordam berishini ta'kidlaydi.

Nazariy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy refleksiya madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Tahliliy fikrlashni rivojlantirish – bo'lajak tarbiyachilarni o'z pedagogik faoliyatini chuqur tahlil qilishga o'rgatish.
2. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish – o'z faoliyatiga xolis baho berish va natijalardan kelib chiqib, yangi strategiyalar ishlab chiqish.
3. Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish – o'quv jarayonida o'z bilim va kompetensiyalarini ongli ravishda boshqarish.
4. Innovatsion yondashuvlarni qo'llash – zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali refleksiya jarayonini faollashtirish.

Kasbiy refleksiya madaniyatini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismlaridan biri o'qituvchi va tarbiyachilar uchun maxsus metodik ta'lim dasturlarini ishlab chiqishdir. Chunki refleksiya faqat nazariy tushuncha bo'lib qolmay, balki amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanishi kerak. Bu borada G. A. Ball va A. K. Markova kabi olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kasbiy refleksiya jarayonini rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantirishlari zarur.

Shu tariqa, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy refleksiya madaniyatini rivojlantirish o'qitish jarayonining uzviy qismi bo'lib, uni zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish ta'lim sifati va pedagoglarning malakasi oshishiga xizmat qiladi.

Ko'pincha pedagoglar individual esse yoki o'z-o'zini hisobotlarda faqat kasbiy va shaxsiy hayotidagi faktlarni qayd etadilar, ammo qiyinchiliklar sabablarini tahlil qilmaydilar.

Pedagogik refleksiyaning rivojlantirish shartlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogning maxsus tashkil etilgan reflektiv faoliyati.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> April, 2025

2. Reflektiv muhit va reflektiv hamjamiyat mavjudligi. Reflektiv muhitdagi asosiy yoʻnalishlar quyidagilardir:

Pedagogning shaxsiy faoliyati boʻyicha ekzistensial hodisalar, maʼno va qadriyatlar bilan ishlash.

Kasbiy sifatlarni psixologik jihatdan xavfsiz (bahosiz) diagnostika qilish va olingan natijalarni kasbiy oʻzini takomillashtirish uchun ishlatish;

Pedagogning ijodiy oʻziga xosligini rivojlantirish.

Bunday muhitning vazifasi hamkorlikni ragʻbatlantirish, tanlov imkoniyatlarini yaratish boʻlib, buning natijasida shaxs va mutaxassis sifatidagi tasavvurlar sifat jihatidan oʻzgaradi.

3. Reflektiv faoliyat ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlarni faollashtirish. Bu yerda subʼekt-obyekt munosabatlaridan subʼekt-subʼekt munosabatlariga oʻtish orqali pedagogning kasbiy refleksiya-rasini rivojlantirish mexanizmlari shakllanadi. Natijada, reflektiv faoliyatda oʻzaro munosabatlar, hamkorlik va hamijroklik vujudga keladi.

4. Pedagogning reflektivligini faollashtirish. Refleksiya tufayli pedagog oʻz kasbiga qamrab olinib qolishdan chiqib, unga “boshqa odam” nuqtayi nazaridan qarash, unga nisbatan toʻgʻriroq munosabat bildirish va hatto undan “tashqarida” yoki “ustida” turib fikr yuritish imkoniyatiga ega boʻladi.

Refleksiya madaniyatining asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

Muammoli vaziyatlarni ijodiy anglab yetish va yengib oʻtish uchun tayyorgarlik va qobiliyat. Yangi maʼnolar va qadriyatlarni kashf qilish koʻnikmasi. Noanʼanaviy shaxslararo munosabatlarda moslashish qobiliyati. Noodatiy ijodiy vazifalarni va muammolarni qoʻyish va hal qilish koʻnikmasi.

Xulosa qilib aytganda Boʻlajak tarbiyachilarning kasbiy refleksiya madaniyatini rivojlantirish taʼlim jarayonining ajralmas qismi boʻlishi lozim. Tadqiqot natijalari bu yoʻnalishda maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish muhimligini koʻrsatdi. Ushbu tadqiqot boʻlajak tarbiyachilarning kasbiy refleksiya madaniyatini shakllantirishda innovatsion metodikalar samaradorligini oʻrganishga qaratildi.



## International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20<sup>th</sup> April, 2025

---

### Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati

1. Schon D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Karpov A. V. Refleksiya: psixologik tahlil. – Moskva: Institut psixologii RAN, 2004.
4. Sayfurov N., Musurmonova O., O'rinboyeva G. Pedagogik refleksiya: nazariy va amaliy asoslar. – Toshkent: Fan, 2020.